



YUQORI CHIRCHIQ TUMANINING 2021–2023 YILLARDA IJTIMOIY- IQTISODIY RIVOJLANISH HOLATI

Siddikov Alisher Ismoilovich

Tadqiqotchi, Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent viloyatiga qarashli Yuqori Chirchiq tumanining 2021–2023 yillar oralig‘idagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan. Tahlilda sanoat, qishloq xo‘jaligi, investitsiyalar, qurilish, tashqi savdo, xizmatlar sohasi hamda aholi bandligi kabi yo‘nalishlar yoritilgan. Maqolada tuman iqtisodiyotining o‘sish sur’atlari, mayjud muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar haqida ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Yuqori Chirchiq tumani, iqtisodiy rivojlanish, sanoat, qishloq xo‘jaligi, statistika, investitsiya, bandlik, infratuzilma.

Аннотация: В данной статье на основе статистических данных проанализировано социально-экономическое развитие Юкоричирчикского района Ташкентской области в период 2021–2023 годов. В анализе охвачены такие направления, как промышленность, сельское хозяйство, инвестиции, строительство, внешняя торговля, сфера услуг и занятость населения. В статье приведены научные выводы о темпах экономического роста района, имеющихся проблемах и перспективных направлениях развития.

Ключевые слова: Юкоричирчикский район, экономическое развитие, промышленность, сельское хозяйство, статистика, инвестиции, занятость, инфраструктура.

Abstract: This article analyzes the socio-economic development of the Yukori Chirchiq district of Tashkent region during the years 2021–2023, based on statistical data. The analysis covers key areas such as industry, agriculture, investments, construction, foreign trade, service sector, and employment. The article provides scientific conclusions regarding the district's economic growth dynamics, existing challenges, and promising directions for future development.

Keywords: Yukori Chirchiq district, economic development, industry, agriculture, statistics, investment, employment, infrastructure

Yuqori Chirchiq tumani Toshkent viloyatining muhim iqtisodiy hududlaridan biri bo‘lib, aholi soni, tabiiy resurslari va transport-logistika salohiyati bilan ajralib turadi. So‘nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar tuman miqyosida ham o‘z samarasini bermoqda. Xususan, 2021–2023 yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy chora-tadbirlar natijasida tumanda sanoat ishlab chiqarishi, investitsiyalar hajmi, xizmat ko‘rsatish sohasi va ijtimoiy infratuzilma sezilarli darajada rivojlandi. Quyida ushbu jarayonlar statistik ma’lumotlarga asoslangan holda yoritiladi.



1. Aholi soni va demografik ko‘rsatkichlar Yuqori Chirchiq tumanining aholisi 2021 yilda 188,3 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yil yakunida bu raqam 196,7 ming kishiga yetdi. O‘sish sur’ati yiliga o‘rtacha 2,2% ni tashkil etdi.

2. Sanoat ishlab chiqarishi 2021 yilda sanoat mahsulotlari hajmi 612,8 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilda bu ko‘rsatkich 921,6 mlrd so‘mga yetdi (o‘sish 50% dan ortiq). Asosiy o‘sish metall mahsulotlari, qurilish materiallari va oziq-ovqat sanoatida kuzatildi.

| Yil | Sanoat hajmi (mlrd so‘mda) | O‘sish (%) |
|------|----------------------------|------------|
| 2021 | 612,8 | — |
| 2022 | 731,4 | +19,3% |
| 2023 | 921,6 | +26% |

3. Qishloq xo‘jaligi Tuman qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan. 2021 yilda 1 084,5 mlrd so‘mga teng bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsuloti 2023 yilda 1 320,1 mlrd so‘mga yetdi. Kartoshka, sabzavot, g‘alla, chorvachilik mahsulotlari asosiy ulushni egallaydi.

4. Investitsiyalar va qurilish 2023 yil yakuniga ko‘ra, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 735,2 mlrd so‘mni tashkil etdi (2021 yildagi 496,3 mlrd so‘mga nisbatan 48,2% o‘sish). Ko‘plab maktablar, bog‘chalar va sog‘liqni saqlash muassasalari ta’mirlandi yoki yangidan qurildi.

5. Tashqi savdo va xizmatlar sohasi 2021–2023 yillarda tumandan eksport qilinayotgan mahsulotlar hajmi 1,5 barobarga oshdi. Xizmatlar sohasi ham jadal rivojlandi. Turizm, savdo, transport va maishiy xizmatlar hajmi yil sayin o‘sib bordi.

6. Aholi bandligi va ijtimoiy infratuzilma Tuman bo‘yicha ishsizlik darajasi 2021 yildagi 10,8% dan 2023 yilda 8,2% ga tushdi. Yangi ish o‘rnlari yaratish bo‘yicha mahallabay ishslash tizimi samaradorlik ko‘rsatdi. 2021–2023 yillarda jami 8 200 dan ortiq yangi ish o‘rni yaratildi.

Yuqori Chirchiq tumani 2021–2023 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlarga erishdi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi sohasidagi yutuqlar, investitsiya jalg qilish darajasining ortishi, tashqi savdo salohiyatining oshgani – bularning barchasi tumanning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlamoqda. Biroq hali ham hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar – ishsizlik, ichki yo‘llar ta’miri, ichimlik suvi va ekologiya kabi sohalarda mavjud. Shu sababli kelgusida innovatsion yondashuvlar asosida tumanni kompleks rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Toshkent viloyati statistika boshqarmasi hisobotlari (2021–2023 yillar)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari (2021–2023)
3. OAV va rasmiy axborot portallari: www.stat.uz, www.toshstat.uz
4. Yuqori Chirchiq tuman hokimligi axborot xizmati ma’lumotlar